

## BARQAROR BIZNES: IQTISODIY O‘SISH VA TABIATNI MUHOFAZA QILISHNING UYG‘UNLIGI

**Jo'rayeva Ma'mura Ziyoviddinovna**

*Ilmiy rahbar: Axmedov Rahmonjon Mamadjanovich*

**Annotatsiya:** Barqaror biznes deganda, iqtisodiyotning o‘shishi, jamiyatning taraqqiyoti va tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik prinsiplariga asoslangan faoliyat tushuniladi. Bunday yondashuvda foyda ko‘rish, resurslarni oqilona ishlatish va atrof-muhitga ehtiromli munosabat asosiy qadriyat sifatida qaraladi. Bugungi kunda global miqyosda inson hayoti, qayta tiklanuvchi va tugovchi resurslar va ekologik muvozanat masalalari tobora dolzarblik kasb etmoqda. Yangi iqtisodiy modelda barqarorlik yondoshuvi, faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar emas, balki ijtimoiy manfaat va ekologik xavfsizlikning uyg‘unligini ham uzviy tarkibiy qism sifatida qaraydi. Iqtisodiy taraqqiyotning o‘zi ham, tabiatni asrash masalalarini inkor etmaydi, aksincha, buning uchun yangi yechim va yo‘llarni izlashga undaydi.

**Kalit so‘zlar:** barqaror biznes, iqtisodiy o‘shish, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil texnologiyalar, ekologik menejment, resurslarni tejash, innovatsion rivojlanish, muqobil energiya, ijtimoiy mas’uliyat.

Iqtisodiyot insoniyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti va farovonligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiyot sohasida olib boriladigan faoliyatlar orqali ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste’mol jarayonlari uzluksiz ravishda amalga oshiriladi. Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining yangi bosqichida, innovatsion yechimlar va samaradorlikka erishish uchun iqtisodiy munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish katta ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyot nafaqat insonlarning moddiy ehtiyojlarini qondirish, balki ularning ijtimoiy osoyishtaligini ta’minlash, ilm-fan va texnologiyalar rivojiga hissa qo‘shish, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan yondashishni ham talab qiladi. Shu tariqa, iqtisodiyot jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida alohida ahamiyatga ega.

Barqaror biznes konsepsiyasida kompaniyalar nafaqat daromad olishni, balki iste’molchilar, aholi va tabiatning manfaati yo‘lida ishlashni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu nuqtayi nazardan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda atrof-muhitga zarari kam bo‘lgan, zamonaviy va ekologik toza texnologiyalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bunda chiqindilarni qayta ishlash, energiyani tejash, tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish kabi tamoyillar ustuvor o‘rinni egallaydi. Jamiyatda ekologik madaniyat shakllantirilishi, iste’molchilarning ham tabiatga e’tiborli yondashuvini rag‘batlantiradi. Mamlakat iqtisodiyotining ham uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun ekologik xavfsizlikning ta’minlanishi muhimdir. Ko‘pgina

sohalarda tez o'sish va taraqqiyot sodir bo'layotgan bir paytda, ba'zi korxonalar va biznes sub'ektlari ekologiyaga yetkazilgan salbiy ta'sir natijasida muhim resurslar yo'qolishiga yoki iqlim o'zgarishiga olib keladigan muammolarga duch kelmoqda. Shu sababli har bir kompaniya o'z ishlab chiqarish jarayonlarida eng qulay va ekologik toza yechimlarni tanlashni afzal ko'radi. Ushbu yondashuv jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi va hududda sog'lom muhitni saqlashga yordam beradi. Zamonaviy iqtisodiyotda barqarorlik yangi texnologiyalar va innovatsiyalardan oqilona foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bu, o'z navbatida, tabiiy resurslardan foydalanishda samaradorlikni oshirish, chiqindilarni kamaytirish, energiya va suv resurslarini tejash va ulardan to'g'ri foydalanish imkonini beradi.[1]

Mehnat resurslaridan ham samarali foydalanish va xodimlarning ijtimoiy himoyasi, barqaror biznes yuritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror kompaniyalar o'z xodimlariga sharoit yaratadi va ularning salomatligini asrash, doimiy o'qitish va malakasini oshirish bo'yicha tizimli ish olib boradi. Bu esa o'z navbatida, umumiy samaraning ortishi, ichki muhitda ijobiy kayfiyat va tashkilotga sodiqlik kuchayishiga olib keladi. Yashil iqtisodiyot va barqaror ishlab chiqarish tamoyillari asosida faoliyat yuritish, jamiyat va mamlakat taraqqiyotiga, ekologik muvozanatning saqlanishiga xizmat qiladi. Yoshlar va yangi avlodlarning ekologik bilim va madaniyatini oshirish, ularni tabiatga yaxshiroq munosabatda bo'lishga o'rgatish ham, barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki taraqqiyotga intilishni tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatga uyg'unlashtirish har qachon ijobiy natija beradi. Xususan, global isish, iqlim o'zgarishi va muhit ifloslanishi kabi muammolar hozirda barcha davlatlar oldida dolzarb masalaga aylangan. Bu muammolar nafaqat ekologiya, balki iqtisodiy barqarorlikka ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu sharoitda har bir korxona, kompaniya va umuman jamiyatning barcha vakillari mas'uliyat bilan harakat qilishi zarur.[2]

Zamonaviy biznesda atrof-muhitning ahvoli, resurslarning sifatli va tejamkor ishlatilishi, inson salomatligi kabi omillar har doimgidan ham muhim. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va yangi ishlab chiqarish uslublari yordamida iqtisodiy taraqqiyot va ekologik xavfsizlik o'rtasida muvozanatni saqlab turish mumkin bo'lmoqda. Bu jarayonda davlat tomonidan ham tegishli chora va dasturlar, qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar joriy qilinib, tabiatni himoya qilish borasida biznes sub'ektlariga rag'bat va imkoniyatlar yaratiladi. Shuningdek, inson omili hamma joyda oldingi o'rinda turadi; xodimlarning salomatligini muhofaza qilish, mehnat muhofazasi talablariga rioya etish ham har doim asosiy masalalardan biri bo'lib qoladi. Barqaror biznes yuritishda ijtimoiy mas'uliyat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kompaniyalar tabiiy resurslardan foydalanayotganda, ham ekologik, ham ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni uzoq muddatli manfaatlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishi kerak. Bu orqali ular jamiyatga

foйда yetkazish, xodimlar va iste'molchilar oldida mas'uliyatli bo'lish bilan birga, tabiatga nisbatan ham doimiy ehtirom ko'rsatadilar. Yangi ish o'rinlari yaratish, ekologik xavfsiz mahsulot va xizmatlar ko'rsatish, atrof-muhit va yashash muhitini asrash jarayonlari, zamonaviy biznes olamining ajralmas qismiga aylanmoqda. [3]

Iqtisodiy taraqqiyot va tabiatga zarar yetkazmaslik o'rtasida barqaror muvozanat saqlash, jamiyatning umumiy ravnaqi, inson farovonligi va tabiatning salomatligi uchun juda muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, davlat, biznes va fuqarolik jamiyati bir-biri bilan yaqin hamkorlikda harakat qilishlari lozim. Barqaror biznes yuritish, har bir kompaniya uchun faqat iqtisodiy muvaffaqiyat emas, balki ijtimoiy va ekologik jihatdan ham manfaatli strategiya hisoblanadi. Natijada, bugungi global muammolar va taraqqiyot yo'lida barqaror biznes yuritish, iqtisodiy rivojlanish va tabiatni muhofaza qilish uyg'unligiga tayanadi. Bu prinsiplar asosida faoliyat yuritilsa, nafaqat iqtisodiy o'sish, balki tabiatning tiklanishi va muhitning yaxshilanishi, jamiyatning farovon bo'lishi hamda inson salomatligining asrashiga erishish mumkin bo'ladi. Uzoq muddatli istiqbolda ana shunday yondashuvlar har bir tashkilot, jamiyat va mamlakat uchun eng maqbul yo'l hisoblanadi.[4]

Barqaror biznes tamoyillarini joriy qilish jarayonida bir qator muammolar va to'siqlar vujudga keladi. Bu muammolar ko'pincha kompaniyalarning o'zaro raqobati, iqtisodiy manfaatlar, texnologik imkoniyatlar va madaniy yondashuvlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Eng asosiy muammo – moliyaviy resurslar yetishmasligidir. Chunki, ko'plab barqarorlik tamoyillarini amalda qo'llash uchun yangi texnologiyalar, uskunalar, ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlariga o'tish talab etiladi. Bu jarayon katta sarmoya va mablag'larni talab qiladi. Ko'plab kichik va o'rta biznes subyektlari uchun bu imkoniyatlar har doim ham mavjud emas. Shu sababli, ular an'anaviy usullardan voz kechib, yangi barqaror yondashuvlarni to'liq joriy eta olmaydi. Yana bir muammo – axborot va bilim yetishmasligi. Barqaror biznes tamoyillari haqida to'g'ri va yetarli ma'lumotga ega bo'lmaslik, xodimlarning va rahbariyatning ekologik savodxonligi pastligi, zamonaviy ekologik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tajribaning yetarli emasligi, ularni joriy qilishni sekinlashtiradi. Bu holatda biznes subyektlari ichki o'quv dasturlari va ekologik maslahat markazlaridan foydalanish ehtiyojiga duch keladi. Boshqaruv tizimidagi muvozanatsizlik va yetarli motivatsiyaning yo'qligi ham muammoli jihatlardan biri. Ba'zan kompaniya rahbariyati qisqa muddatli iqtisodiy foydani ustuvor deb biladi, shuning uchun barqarorlik dasturlariga yetarli e'tibor qaratilmaydi. Natijada, barqaror rivojlanishga to'siq bo'luvchi iqtisodiy va strategik qarorlar qabul qilinadi. Huquqiy baza va davlat tomonidan beriladigan rag'batlarning yetarli emasligi ham muhim omil hisoblanadi. Ba'zi mamlakatlarda barqaror biznesni rivojlantirish uchun qonunchilikda aniq me'yorlar va imtiyozlar mavjud emas. Shu bois, kompaniyalar ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni to'liq o'z bo'yniga olishdan cho'chiydi va barqaror tamoyillardan ko'ra

tejamkor usullarni afzal ko‘radi.

Yana bir to‘siq – ekologik innovatsiyalarning hamma joyda birdek qo‘llanilmasligi, ularning mahalliy sharoitga moslashmasligi yoki bozordagi mavjud texnologik infrastrukturaga to‘g‘ri kelmasligi. Natijada, yangi loyihalar natija berishi uchun ko‘p vaqt va kuch talab qilinadi, kompaniyalar esa tez natija kutadi va iqtisodiy risklarni kamroq olishga harakat qiladi. Iste‘molchilarning ham ekologik savodxonligi past bo‘lsa yoki barqaror mahsulot va xizmatlarga talab kam bo‘lsa, kompaniyalar shunday tamoyillarga o‘tishni qiyin deb bilishadi. Bozorda barqaror mahsulot narxining yuqoriligi aholini ko‘proq an‘anaviy, arzon mahsulotlarga yo‘naltiradi, natijada, barqaror mahsulotlarni ilgari surish darajasi past bo‘lib qoladi. Shu tarzda, barqaror biznes tamoyillarini joriy qilishda asosiy muammolar sarmoya va resurslarning yetishmasligi, bilim va axborot taqchilligi, motivatsiya pastligi, qonunchilik va davlat tomonidan ko‘mak cheklanganligi, bozor va texnologik infratuzilma imkoniyatlarining cheklangani hamda aholining ekologik madaniyat darajasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish orqali barqaror biznes tamoyillarini har bir kompaniyada tatbiq qilish imkoni bo‘ladi.[5]

Insoniyat taraqqiyotining eng muhim masalalaridan biri – iqtisodiy o‘shish va ekologiyaning muvozanatli rivojlanishidir. Bugungi globallashuv jarayonida davlatlar va xalqlar oldida jadal iqtisodiy taraqqiyotga erishish va natijada aholi farovonligini oshirish vazifasi turgan bir vaqtda, bu jarayon ekologik xavfsizlik, barqarorlik va atrof-muhit muhofazasi talablari bilan chambarchas bog‘liq. Qisqa muddatli iqtisodiy manfaatlar sababli tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish, chiqindilar yoki zararli gazlarning ko‘payishi, ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa uzoq muddatli rivojlanish uchun halokatli natijalarga sabab bo‘ladi. Shu sababli, zamonaviy taraqqiyot modelida iqtisodiy o‘shish va ekologiyani muvozanatlash masalasi keskin dolzarblikka ega. Iqtisodiy o‘shish ta‘rifi – mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar hajmining yildan-yilga ortib borishi, milliy yig‘ma mahsulot (YaIM) va aholi jon boshiga daromadlar ko‘rsatkichi o‘shishi, ishlab chiqarish va infratuzilma rivojlanishidir. Bu jarayonda ko‘plab tarmoqlar: sanoat, energetika, transport, qishloq xo‘jaligi, qurilish va boshqalar faol ishlaydi. Lekin aynan shu sohalarida resurslardan ko‘p foydalaniladi va ko‘plab chiqindilar, zararli gazlar, zaxarlar hosil qilinadi. Resurslarning asosiy qismini egallagan davlatlar hamma paytda ham ekologiyaga e‘tibor bermayapti; bu esa atmosferaning ifloslanishi, tuproq va suv zaharlanishi, hayvonot va o‘simlik dunyosining kamayishi, iqlim o‘zgarishlari singari global muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda ekologiya va iqtisodiyot o‘zaro raqobatchilik, to‘qnashuv zebiga emas, balki bir-birini to‘ldiradigan, uyg‘unlashtiriladigan sohalar sifatida qaralayapti. Aynan shuning uchun ham, davlatlar va umuman insoniyat oldida zamonaviy iqtisodiy manfaatlar va atrof-muhitga bo‘lgan muhofazakor qadriyatlarga asoslangan yondashuvlar shakllanmoqda.

Eng ilgʻor va samarali chora – bu barqaror rivojlanish konsepsiyasini respublika taraqqiyot strategiyasiga asos qilib olishdir. Barqaror rivojlanish – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarni bir vaqtning oʻzida muvozanatlash va kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslarni asrab-avaylash falsafasi demakdir. Bunday strategiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: tabiiy boyliklarni maqsadli va tejamkor ishlatish, minimal chiqindili va ifloslanishli ishlab chiqarishni joriy qilish, ijtimoiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni mutanosib olib borish. Birgina iqtisodiy natijalarga qaram boʻlmalik va har qanday yuksalishda ekologik omillarni ustuvor qoʻyish — barqaror taraqqiyotning asosi hisoblanadi.[6]

Sanoat, energetika, transport va boshqa tarmoqlarda eng koʻp resurs sarflanadi va atrof-muhitga asosiy zarar yetkaziladi. Shu sababli energiya va resurslarni tejamli ishlatish, zamonaviy va innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish, eksport- va resursboy iqtisodiyotdan sarmoyaviy va intellektual iqtisodiyotga oʻtish zamonaviy taraqqiyotning asosiy chorasidir. Energiya samaradorligini oshirish, issiqlik va elektr yoʻqotilishini kamaytiruvchi texnologiyalar, yoqilgʻi-energetika kompleksini zamonaviylashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh, shamol, gidro, bioenergiya) tatbiq etish atrof-muhitga zarar yetkazishni sezilarli kamaytiradi, iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi hozirgi kunda eng muhim chora sifatida qaralmoqda. Bu modelda iqtisodiy oʻsish nafaqat moliyaviy koʻrsatkichlarga, balki resurslarni tejamli foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xavfsizlik darajasiga bogʻliq. Yashil texnologiyalar - zamonaviy, ekologik toza ishlab chiqarish usullari, chiqindi va boshqa zararli tashlamalarni minimallashtirish, tabiiy muhitni tiklovchi texnologiyalardir. Xususan, chiqindi gazlardan elektr energiyasini olish, chiqindilarni saralash va 100% qayta ishlash, suvni aylanma siklda tozalovchi va qayta ishlovchi uskunalardan foydalanish, ekologik transport (elektromobillar, velosipedlar, vodorodli transport)ni keng tatbiq etish, biooziq-ovqatlarni yetishtirish, kimyo va farmatsevtika sohaslarida ekologik xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarish eng ilgʻor chora-tadbirlar sirasiga kiradi. Sanoat va transport eng koʻp ifloslantiruvchi sohalardan ekan, ularni ekologiyalashtirish va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Texnologik modernizatsiya, chiqindi gazlarni filtrlash, issiqlik elektr stansiyalarini ekologik uskunar bilan jihozlash, avtomotiv sanoatida elektr va gibrid transport vositalarini koʻpaytirish, zamonaviy logistikani rivojlantirish, avtomobil yoʻllari atrofini koʻkalamzorlashtirish orqali ham sezilarli natijalarga erishish mumkin. Avtomobil va sanoat chiqindilarini kamaytirish, yoqilgʻi sifatini yaxshilash, ommaviy transportda ekologik mezonlarni tatbiq etish iqtisodiy manfaatdan tezda qaytadigan, ekologiyaga foydali choralardir.

### **Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dunyoda barqaror biznes yuritish va iqtisodiy

o'sishni tabiatni muhofaza qilish bilan uyg'unlashtirish har qachongidan ham muhimdir. Iqtisodiyot va tabiat bir-biriga bog'liq hamda bir-birini to'ldiruvchi tizimdir. Aynan shunday integratsiya barqaror taraqqiyotga, salomat va farovon kelajak sari ishonch bilan intilish imkonini beradi. Shu sababli, har bir davlatda, har bir sohoda va har bir inson hayotida barqarorlik prinsiplariga katta ahamiyat qaratilishi lozim. Bu nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar hayotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov, Q. (2018). "Barqaror rivojlanishning iqtisodiy asoslari." Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3(5), 15-20.
2. Bazarov, I. (2020). "Ekologik xavfsizlik va barqaror taraqqiyot muammolari." O'zbekiston biologiya jurnali, 4(2), 62-69.
3. Bobojonov, B. (2019). "Barqaror biznes rivojida ekologiya o'rni." Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2(3), 23-28.
4. Ergashev, S. (2017). "Iqtisodiyotni ekologik barqarorlashtirish yo'llari." Innovatsion rivojlanish va zamonaviy fan, 1(1), 50-55.
5. Karimov, M. (2021). "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes strategiyalari." Baraka iqtisodiy tadqiqotlar to'plami, 6(4), 73-79.
6. Masharipova, R. (2021). "Ekologik madaniyat va barqaror biznes asoslari." Iqtisodiyot va ta'lim, 5(2), 38-45.
7. Rasulov, U. (2018). "Atrof-muhitni muhofaza qilish va korxonalarda ekologik menejment." Tabiat va jamiyat, 2(1), 91-98.